



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**«IASMOLAYMAN»**

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b

Prof. U. Xodjaniyozov

2025-yil


**“IJRO ISHINI YURITISH”**

**FAN DASTURI**

<b>Bilm sohasi</b>	400000-Biznes, boshqaruv va huquq
<b>Ta'lim sohasi</b>	420000-Huquq
<b>Ta'lim yo'nalishi</b>	60420100- Yurisprudensiya

Urganch -2025

Mazkur fan dasturi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2025-yil "23" 8 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha prorektor:  prof. S.U. Xodjaniyozov

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:  dots. G.R. Matlatipov

Mazkur fan dasturi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining 2025-yil "23" 8 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (1-sonli bayonnomasi).

"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar"

fakulteti dekani:  prof. I.S. Abdullayev

Mazkur fan dasturi "Huquq" kafedrasining 2025-yil "21" 8 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (1-sonli bayonnomasi).

Huquq kafedrasini mudiri:  dots. U.Q. Hajiyev

Fan/modul kodi IYY2A2	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 4/4	
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)	
Ijro ishini yuritish	60	90	150	

## I. Fanning mazmuni

“Ijro ishi yuritish” fani majburiy ijro tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Ijro ishi yuritish, huquq sohalaridan biri bo'lib, qonun talablarini hayotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tartibini o'rgatishga yo'naltirilgandir. Ijro ishi yuritish bilan bog'liq bilimlarni egallash va ularni to'g'ri qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish inson va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish instituti vazifalarini to'liq amalga oshirish kafolati hamda shartidir. Mazkur fan talabalar tomonidan ijro ishi yuritish asoslari, shuningdek, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati hamda bu boradagi yangiliklarni o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Ushbu dastur “Ijro ishi yuritish” fanining tushunchasi, predmeti va tizimi, O'zbekistonda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning tashkiliy masalalari, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini sud ijrochilari tomonidan majburiy ijro etish huquqiy asoslari hamda tartibi, ijro hujjatlarida qo'yiladigan talablar, ijro ishi yuritishida ishtirok etuvchi shaxslar, ijro hujjatlarini ijroga qaratish tartibi, ularni majburiy ijro etish asosi va choralari, undiruvning qarzdorning mol-mulkiga, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga qaratish, mulkiy xususiyatlarga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish, ijro ishi yuritishning boshqa xususiyatlari, sud ijrochisining maqomi kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv dasturi “Ijro ishi yuritish” fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chikilgan.

Fan dasturi fanning maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi, nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, myctodik tavsiyalar, taqvimiy mavzui ryejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxati hamda baholash myezionlarini qamrab olgan.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Ijro ishi yuritish tushunchasi, Mohiyati va predmeti.

Ijro ishini yuritish tushunchasi. Ijro ishi yuritish vaqtida davlat ijrochisi huquqi buzilgan fu- qaroning sud tomonidan chiqarilgan qonuniy qarori yoki hukmi asosida bu huquqni tiklar ekan, o'z o'rnida bunday harakat boshqalar uchun ularning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazmaslikka da'vat etishga qaratilgan bo'ladi. Ijro ishi yuritishning mohiyati qonunda nazarda tutilgan tartibda qarzdorga nisbatan undiruvchining qonuniy talablarini qondirishga qaratilgan majburlov choralari (majburiy ijrojni qo'llashdan iborat).

Ijro ishi yuritishni huquqiy tartibga solish predmeti esa sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish doirasida vujudga keladigan nazorat, ma'muriy, moliyaviy, mulkiy, protsessual va boshqa turli sohadagi ijtimoiy munosabatlardir. Ijro ishi yuritish fuqarolik protsessual huquqi va iqtisodiy protsessual huquq hamda boshqa ko'plab huquq sohalari bilan o'zaro hamkorlikqiladi. Ijro ishi yuritish - qonunda belgilangan tartibda ijro hujjatida ko'rsatilgan (qarzdorga nisbatan undiruvchining) talabni davlat ijrochisi tomonidan amalga oshirishga qaratilgan faoliyat Ijro ishi yuritish - eng avvalo, protsessual huquq sohasidir, uning ichida vujudga keladigan qolgan boshqa barcha munosabatlar esa aynan shu sohaga davlat ijrochisining ijro ishi yuritishiga oid protsessual munosabatlar hisoblanadi.

Ijro huquqini huquqiy tartibga solish predmetini ijro ishi yuritishda davlat ijrochisining majburiy ijro etish faoliyati bo'yicha vujudga keladigan protsessual munosabatlar majmui tashkil qiladi. Shu o'rinda majburiy ijro etish tushunchasiga ta'rif berib o'tsak. Majburiy ijro ijro hujjati talabini bajarmagan shaxsga nisbatan sud hujjatlari yoki boshqa organning hujjati asosida uni muayyan harakatlar, mulkiy va nomulkiy xarakterdagi munosabatlar (majburiy jarima, ijro yig'imi undirish v.b.)ni majburan bajarishga qaratilgan maxsus choradir. Majburiy ijro faoliyatini qonun bilan nazarda tutilgan o'ziga xos protsessual harakatlarning yig'indisi sifatida e'tirof etish mumkin. Ijro hujjati talabi davlat ijrochisi tomonidan

belgilangan o'n besh kunlik ixtiyoriy muddatda qarzdor tomonidan bajarilmasa, davlat ijrochisi majburiy ijro harakatlariga kirishadi. Qarzdor ijro hujjatlari talablarini ixtiyoriy ravishda ijro etsa, majburiy ijro choralari qo'llanmaydi. Fuqarolarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongi yuqori bo'lsa, ijro hujjatlarini o'z xohishi bilan ixtiyoriy ijro etadi.

### **2-mavzu. Ijro ishi yuritishning umumiy qoidalari.**

Ijro ishi yuritish manbalari sud hujjatlari, shuningdek, boshqa organlarning (mansabdor shaxslar] hujjatlari majburiy ijro etilayotganda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlardir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ijro ishi yuritish aynan sud organlari va boshqa organlarning hujjatlari majburiy ijro etilayotganda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Ixtiyoriy ijro etilishi bilan bog'liq munosabatlarni bevosita ijro ishi yuritish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solmaydi.

O'zbekiston Respublikasida ijro ishi yuritishga doir manbalarga quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin:

### **3- mavzu. Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar.**

Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar deganda ma'lum yuridik (moddiy (yoki) protsessual-huquqiy) manfaatga ega bo'lgan va ijro ishi yuritishda o'z nomidan yoxud boshqa shaxslar nomidan o'zining manfaatlari, boshqa shaxslar manfaatlari, davlat va jamoat manfaatlari himoya qilish uchun ishtirok etadigan ijro ishi yuritishning barcha ishtirokchilari tushuniladi.

Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasining kvalifikatsiyalovchi belgilari sifatida ikki elementni ajratib ko'rsatish mumkin:

- yuridik manfaat;
- o'z manfaatlari yoki boshqa shaxslar manfaatlari himoya qilish

maqsadida o'z nomidan yoxud boshqa shaxslarning huquq va manfaatlari himoya qilish maqsadida ularning nomidan harakat qilish layoqatiga ega bo'lish.

Demak, ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasining bu ikki kvalifikatsiyalovchi belgisi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ijro ishida ishtirok etuvchi shaxslar ijro harakatlari amalga oshirilayotganda yuridik (moddiy yoki

protsessual) manfaatga ega bo'lib, o'zining yoki boshqa shaxslarning huquq va manfaatlari himoya qiladi.

Ijro ishini yuritishning asosiy ishtirokchilariga undiruvchi, qarzdor, davlat ijrochisi, bank yoki kredit muassasasi, sudya, davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kiradi.

### **4-mavzu. O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosi organlari.**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi sud hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi. Byuro faoliyati, uning maqsad-vazifalari va funksiyalari, faoliyatini tashkil etish asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risida"gi nizomda belgilangan.

Byuro tizimiga uning markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, byuroning tuman (shahar) bo'limlari kiradi.

### **5-mavzu. Davlat ijrochisining Maqomi.**

Davlat ijrochisi ijro etuvchi hokimiyat vakili sifatida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlovchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs. O'rta maxsus (yuridik) yoki oliy (yuridik) ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi davlat ijrochisi bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi katta davlat ijrochisi bo'lishi mumkin.

Songgi islohotlarga ko'ra kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi, mutaxassislarni tanlab olishda xolislik va ochiq-oydinlikni ta'minlagan holda davlat ijrochisi lavozimiga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish tartibi joriy etildi.

Davlat ijrochisi lavozimiga tayinlash uchun kadrlarni tanlov asosida saralab olish ishlari yetarli bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan, halol, pok, o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajaradigan kadrlarni tanlashga yo'naltirilgan.

#### **6-mavzu. Ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlari.**

Ijro ishi qo'zg'atish ijro jarayonining birinchi va majburiy bosqichi hisoblanadi. Ijro ishi qo'zg'atish nafaqat majburiy ijro uchun, balki boshqa ijro harakatlarini amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Ijro ishi qo'zg'atish haqidagi qaror chiqarmasdan turib qarzdorning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumot olishga davlat ijrochisining haqi yo'q. Ijro ishi qo'zg'atishni davlat ijrochisi yakka tartibda amalga oshiradi.

Davlat ijrochisiga ijro hujjati yetib kelganidan so'ng unga ikki majburiyat yuklatiladi. Birinchidan, u sud, davlat organi yoki undiruvchidan kelib tushgan ijro hujjatini ijroga qabul qiladi. Ikkinchidan, aniq bir shartlar mavjud bo'lganida ijro ishi qo'zg'atadi. Bunday shartlar ikkita. Birinchi short ijro hujjatining amal qilish muddati o'tib ketmagan bo'lsa. Ikkinchi short ijro hujjati qonun tomonidan ijro hujjatlariga qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

Ijro harakatlarini amalga oshirish joyi deyilganda, ijro harakatlari amalga oshiriladigan va majburiy ijro choralari qo'llanadigan hudud tushuniladi.

Qonunchilikka muvofiq, qarzdor jismoniy shaxs bo'lsa, davlat ijrochisi ijro harakatlarini uning yashash joyi yoki ish joyida yoxud uning mol-mulki turgan joyda amalga oshiradi. Shuningdek, qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, davlat ijrochisi ijro harakatlarini uning organi joylashgan yoki mol-mulki turgan joyda amalga oshiradi.

#### **7-mavzu. Sud Hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asoslari hamda choralari.**

Sud qarorlarini bajarilishini ta'minlash borasida yurtimizda zarur huquqiy asoslar yaratilgan. Sud qarorlari lozim darajada ijro etilmas ekan, sudlar tomonidan qabul qilingan odil sudlov aktlarining tarbiyaviy va amaliy ahamiyatiga putur yetaveradi. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi

Qonun ijro hujjatlarini majburiy ijro etish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Majburiy ijro etish choralari to'g'ri rasmiylashtirilgan ijro hujjati qonunda belgilangan tartibda topshirilganda hamda ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risida davlat ijrochisi tomonidan qaror qabul qilinganda qo'llanadi. Ixtiyoriy ravishda ijro etish uchun davlat ijrochisi tomonidan belgilangan muddatning o'tganligi majburiy ijro etish choralari qo'llash uchun asos bo'ladi.

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasiga ko'ra, davlat ijrochisi qarzdorga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjati bo'yicha ijro ishi yuritishni qo'zg'atayotganda ularni ixtiyoriy ravishda ijro etish uchun unga o'n besh kunlik muddat belgilaydi.

Majburiy ijro - ijro hujjati talabini bajarmagan shaxsga nisbatan sud hujjatlari yoki boshqa organning hujjati asosida uni muayyan harakatlarni, mulkiy va nomulkiy xarakterdagi munosabatlar (majburiy jarima, ijro yig'imi undirish va b.) ni majburan bajarishga qaratilgan maxsus choradir. Majburiy ijro faoliyatini qonun bilan nazarda tutilgan o'ziga xos protsessual harakatlarning yig'indisi sifatida e'tirof etish mumkin. Davlat majburiy ijro choralari qo'llash yo'llari bilan yurisdiktsion organlar qarorida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklab beradi.

#### **8-mavzu. Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish.**

Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish qarzdorning mol-mulkini xatlash (ro'yxatga olish) va majburiy realizatsiya qilishdan iborat. Bu chora barcha qarzdorlarga nisbatan ham, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llanadi. Undiriladigan summa bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan oshgan barcha hollarda undiruv qarzdor - jismoniy shaxsning mol-mulkiga qaratiladi.

Undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk deyilganda ashyolar, boshqa moddiy qimmatliklar, shu jumladan, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, mulkka, ashyolarga bo'lgan huquqlar va majburiyatlar bo'yicha olinadigan mol-mulk

tushuniladi. Jismoniy shaxsning undiruvchi talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, undiruv qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mol-mulkiga qaratiladi, qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan mol-mulk bundan mustasno.

#### **9-mavzu. Undiruvni qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratishning xususiyatlari.**

Ijro hujjatlari bo'yicha yuridik shaxslardan undiruv birinchi navbatda qarzdorning so'mdagi va chet el valyutasidagi pul mablag'lariga hamda boshqa qimmatliklariga, shu jumladan, banklardagi va boshqa kredit tashkilotlaridagi pul mablag'lariga hamda o'zga qimmatliklarga qaratiladi. Davlat ijrochilari sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlari ijrosini ta'minlash uchun qarzdorning mol-mulklarini aniqlash maqsadida tegishli vakolatli idoralarga so'rovnoma yuboradi. Zarur bo'lgan ma'lumotlar, hujjatlar va hujjat nusxalarini olish hamda qarzdorning mol-mulklarini, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari aniqlash maqsadida qarzdorning tegishli barcha (valyuta, maxsus va ikkilamchi) hisobvaraqlari va omonatlari hamda ularda mavjud pul mablag'larini aniqlash maqsadida ijro hujjati nusxasini ilova qilgan holda, MIB hududiy bo'limi gerbli muhri bilan tasdiqlangan so'rovnomani bank yoki boshqa kredit tashkilotlariga qarzdor yuridik shaxsning oxirgi balans hisoboti bo'yicha asosiy vositalar summasini, qarzdorning kreditorlik qarzdorligi summasi hamda kreditor qarzdorlar ro'yxatini, qarzdorning hisob raqamlari joylashgan banki, barcha hisob raqamlarini (valyuta va maxsus hisob raqamlari ham), qarzdor tashkilotning tashkil etilgan vaqti, to'liq nomi, yuridik (pochta) manzili, tashkiliy-huquqiy shakli, STIR, KTUT kodlari, rahbarining to'liq ismi sharifi, telefon raqamlarini, jismoniy shaxslar uchun ularning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va boshqa zarur

ma'lumotlarni aniqlash maqsadida davlat soliq organlariga so'rovnoma yuboradi.

#### **10-mavzu. Qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish.**

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 60-moddasiga ko'ra quyidagi ketma-ketlikda qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish amalga oshiriladi:

birinchi navbatda - ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan ko'char mol-mulkka (qimmatli qog'ozlarga, qarzdorning depozit va boshqa hisobvaraqlaridagi pul mablag'lariga, valyuta qimmatliklari, yengil avtotransport, ofislar dizayni ashyolari, tayyor mahsulot (tovarlar), qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga, ulardan tayyorlangan buyumlarga, shuningdek bunday buyumlar parchalariga va boshqalarga) nisbatan;

ikkinchi navbatda - tovarlarni ishlab chiqarishda, ishlarni bajarishda va xizmatlar ko'rsatishda bevosita foydalanilmaydigan mulkiy huquqlarga, shuningdek, ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan va bevosita qatnashishga mo'ljallanmagan boshqa moddiy qimmatliklarga nisbatan;

uchinchi navbatda - tovarlar ishlab chiqarishda, ishlarni bajarishda yoki xizmatlar ko'rsatishda bevosita qatnashadigan mulkiy huquqlarga, ko'chmas mulk obyektlariga, shuningdek, xomashyo va materiallar, dastgohlar, asbob-uskunalar, ishlab chiqarishda bevosita qatnashishga mo'ljallangan boshqa asosiy vositalarga nisbatan.

#### **11-mavzu. Qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv.**

Qonunga ko'ra qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv quyidagi holatlardagina amalga oshiriladi:

- davriy to'lovlar (alimentlar, sog'liqni yo'qotilgani yoki boquvchisining vafot etgani munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplashni undirishda;

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdordagi, shu jumladan, yig'ma ijro ishi yuritishga birlashtirilgan ijro hujjatlari bo'yicha ushbu miqdordagi pul summasini undirishda;

- undiriladigan summani to'liq uzish uchun qarzdorning mol-mulki bo'lmasa yoki mol-mulki yetarli bo'lmaganda.

Qarzdorga ish haqi to'layotgan tashkilot davlat ijrochisining ijro hujjati ilova qilingan talabnomasini olgach, belgilangan tartibda ro'yxatga oladi va qarzdorning ish haqidan ushlab qolishadi.

Davlat ijrochisi qarzdorning ish, o'qish, pensiya va boshqa daromadlar olish joyi haqida ma'lumot mavjud bo'lganda, davlat ijrochisi undiruvni ish haqiga qaratishni ijro hujjatining aslini ilova qilgan holda ish haqi yoki boshqa unga tenglashtirilgan to'lovlardan ushlab qolish to'g'risidagi talabnomani qarzdorga ish haqini to'layotgan tashkilotlarga taqdim etadi. Davlat ijrochisi qarzdorning ish, o'qish, pensiya va boshqa daromadlar olish joyi haqidagi ma'lumotlar to'g'riligini mazkur tashkilotlarga so'rovnomaga yuborish orqali tekshirishga haqli.

#### **12-mavzu. Mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish.**

O'zbekistonda qonunga ko'ra yer davlat mulki umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi. Yuridik shaxslar yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'yektlari ular joylashgan yer uchastkalarini bilan birga xususiy- lashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 37-moddasi- ga ko'ra, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer egasining roziligi bilan yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan

holda tegishincha tumen, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan olib qo'yiladi.

#### **13-mavzu. Ijro ishi yuritishdagi xarajatlar. Undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning navbati.**

Davlat ijrochilarining depozit hisobvarag'ida bo'lib, ijro harakatlarini tashkil etish va amalga oshirishga sarflangan mablag'lar, shuningdek, ijro ishini yuritishda ishtirok etuvchi taraflar va boshqa shaxslarning mablag'lari ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlari hisoblanadi. Ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- qarzdorning mol-mulkini tashish, saqlash va realizatsiya qilishga sarflangan mablag'lar;
- ijro harakatlarini amalga oshirishga belgilangan tartibda jalb etilgan tarjimonlar, mutaxassislar va boshqa shaxslarga haq to'lashga sarflangan mablag'lar;
- undirilgan summalarni undiruvchiga pochta orqali o'tkazishga (jo'natishga) sarflangan mablag'lar;
- qarzdorni, uning mol-mulkini yoki qarzdordan sudning qarori bo'yicha olib qo'yilgan bolani qidirishga sarflangan mablag'lar;
- ijro hujjatini ijro etish jarayonida amalga oshiriladigan boshqa zarur ijro harakatlariga sarflangan mablag'lar.

Ijro harakatlarini amalga oshirish xarajatlari hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ijro harakatlarini amalga oshirishga ketgan xarajatlar qarzdordan undirilib, davlat ijrochilarining depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Qarzdorni, uning mol-mulkini va olib qo'yilishi lozim bo'lgan bolani qidirish xarajatlari qarzdordan undiriladi, davlat ijrochisi bu haqda qaror chiqaradi, qarorni katta davlat ijrochisi tasdiqlaydi. Qarzdor jismoniy shaxsni, avtotransport vositasini yoxud olib qo'yilishi lozim bo'lgan bolani qidirish bo'yicha xarajatlar ichki ishlar organining arizasiga ko'ra, qarzdor yuridik shaxsni va qarzdorning (jismoniy yoki yuridik shaxsning) mol-mulkini qidirish xarajatlari bo'yicha esa

tegishli davlat ijrochisi tomonidan qilingan xarajalar hisob-kitobi asosida aniqlanadi.

#### **14-mavzu. Ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik.**

Bankda yoki boshqa kredit tashkilotida qarzdorning hisobvaraqlari mavjudligi haqida undiruvchi ma'lumotlarga ega bo'lsa, pul mablag'larini undirish to'g'risidagi sud hujjatlarining va boshqa organlar hujjatlarining talablari bayon etilgan ijro hujjatini bank yoki boshqa kredit tashkilotiga yuboradi.

Bank yoki boshqa kredit tashkiloti ijro hujjati olingan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida ijro hujjatida ko'rsatilgan pul mablag'larini undirish to'g'risidagi talablarni ijro etadi.

Davlat ijrochisi bank yoki boshqa kredit tashkiloti ijro hujjati ijrosini ta'minlamaganda iqtisodiy sudga bu tashkilotlarni javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish uchun ariza bilan qarzdordan pul mablag'larini undirish to'g'risidagi talabi bajarilmaganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda iqtisodiy sudga murojaat qiladi.

Ijro hujjatlarini ijro etishda davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga solinadigan jarimalaridan farqli ravishda, ijro hujjatlarining ijro etilishi uchun javobgar bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlariga nisbatan moliyaviy jarimalar solish huquqi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 81-moddasiga binoan, faqat iqtisodiy sudigagina berilgan.

#### **15-mavzu. O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosining surishtiruv olib borish va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish amaliyoti.**

2009-yil 14-yanvardagi "Ijro ishi yuritish takomillashti- rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ay- rim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to' g'risida" gi Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat- protsessual kodeksining "Surishtiruv organlari" deb nomlangan 38-moddasiga qo'shimcha kiritildi hamda bu mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organga surishtiruvni amalga oshirish vako-lati berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-may- dagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkam- lash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5059-sonli Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, su-rishtiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vazifalari yuklanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-may- dagi PQ-3016-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byu-rosi to'g'risida"gi nizomda majburiy ijro byurosi va uning joy- lardagi bo'linmalariga Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, o'z vakolatiga taalluqli ishlarni ko'rib chi-qish va Ma'muriy jazo qo'llash, o'z vakolatiga taalluqli ishlar

bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv o'tkazish, shu-ningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish huquqi be- rilganligi ko'rsatilgan.

### Ma'ruza mavzularining soatlar bo'yicha taqsimlanishi

No	Ma'ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
<i>3-semestr</i>		
1.	Ijro ishi yuritish tushunchasi, Mohiyati va predmeti.	2
2.	Ijro ishi yuritishning umumiy qoidalari.	2
3.	Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar.	2
4.	O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro Byurosi organlari.	2
5.	Davlat ijrochisining Maqomi.	2
6.	Ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlari.	2
7.	Sud Hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asoslari hamda choralari.	2
8.	Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish.	2
9.	Undiruvni qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratishning xususiyatlari.	2
10.	Qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish.	2
11.	Qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv.	2
12.	Mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish.	2
13.	Ijro ishi yuritishdagi xarajatlar. Undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning navbati.	2
14.	Ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik.	2
15.	O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosining surishtiruv olib borish va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish amaliyoti	2
<b>Jami</b>		<b>30</b>

### III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulot mavzulari mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi. Mashg'ulotlar faol interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

No	Seminar mavzulari	Dars soatlari hajmi
<i>3-semestr</i>		
1.	Ijro ishi yuritish tushunchasi, Mohiyati va predmeti.	2
2.	Ijro ishi yuritishning umumiy qoidalari.	2
3.	Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar.	2
4.	O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro Byurosi organlari.	2
5.	Davlat ijrochisining Maqomi.	2
6.	Ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlari.	2
7.	Sud Hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asoslari hamda choralari.	2
8.	Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish.	2
9.	Undiruvni qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratishning xususiyatlari.	2
10.	Qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish.	2
11.	Qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv.	2
12.	Mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish.	2
13.	Ijro ishi yuritishdagi xarajatlar. Undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning navbati.	2
14.	Ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik.	2
15.	O'zbekiston respublikasi bosh Prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosining surishtiruv olib borish va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish amaliyoti	2
<b>Jami</b>		<b>30</b>

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

##### Mashg'ulotlar shakli: Mustaqil ta'lim(MT)

Talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish,
- auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish,
- ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish;
- o'quv materiallarini mustaqil o'rganish;

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimot qilishadi.

MT1	Ijro ishi yuritish tushunchasi, mohiyati va pyedmyeti. Ijro ishi yuritishning umumiy qoidalari.
MT2	Ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar.
MT3	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi. Davlat ijrochisining maqomi
MT4	Ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlari. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asos va choralari.
MT5	Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish
MT6	Undiruvni qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratishning xususiyatlari. qarzdor yuridik shaxsning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish.
MT7	Qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan undiruv. Mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish.
MT8	Ujro ishi yuritishdagi xarajatlar. Undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning navbati.
MT9	Ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik.
MT10	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuroning surishtiruv olib borish amaliyoti.
MT11	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuroning ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish amaliyoti.

#### V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

«Ijro ishini yuritish» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

«Ijro ishini yuritish» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- «Ijro ishi yuritish» fanining tushunchasi, mohiyati va vazifalari, ijro ishi yuritishning asosiy qoidalari, ijro ishi yuritishni tashkil etish, sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini, sud va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish asosi va choralari, sud ijrochisining ijro ishini yuritish borasidagi protsyessual harakatlari, sud ijrochilariga qo'yiladigan talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning maqsad va vazifalari, ijro hujjatlarini ijroga qabul qilish, ijro hujjatlarini ijroga qaratish hamda ularni majburiy ijro etish, ijro harakatlarini amalga oshirish, ijro ishi yurituvchi bilan bog'liq hujjatlarni tuzish, ijro hujjatlarini ijro etishdan bosh tortgan shaxslarning javobgarligini hal qilish bilan bog'liq nazariy bilimlarga ega bo'lishi;

- ijro ishi yuritishning amaliy muammolarini hal qilish, sud ijrochisi vazifalarini mustaqil amalga oshirish, ijro ishi yuritish jarayonida vujudga kelyadigan nizolarni to'g'ri baholash va sudgacha bo'lgan tartibda to'g'ri hal qilish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini amaliyotda to'g'ri qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashi;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish, ijro ishini yuritish jarayonida qonun hujjatlarini qo'llash, ijro ishi yuritish jarayonida zarur protsyessual hujjatlarni tuzish, turli toifadagi ijro hujjatlarini ijro etishda ularning xususiyatlarini hisobga olish, ijro ishi yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini ta'minlash, majburiy ijro etish choralari qo'llash, ijro ishi yuritishdagi harajatlarni qoplash, ijro hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlikni qo'llash malakalarini egallashi;

- «Ijro ishi yuritish» fani yuzasidan tavsiya etilgan ma'lumotlardan xabardor bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak

#### VI. Ta'lim texnologiyalar va metodlari.

Talabalarning «Ijro ishini yuritish» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tabiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi, Ma'ruza darslarida va seminar mashg'ulotlarida tegishli mavzular bo'yicha interaktiv metodlar, ishbilarmonlik o'yinlari, multimedia diskleri shu bilan birga turli xil mavzularga oid bo'lgan video tasvirlar orqali mavzularga mos bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- Amaliy mashg'ulot mavzularilar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar havida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

#### VIII. Talabalar bilimni baholash

Talaba bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish baholash tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. (NIZOM -<https://lex.uz/docs/3916793>).

#### IX. O'QUV SOATLARI

Ushbu fan 3-4 semestr davomida o'qitiladi va o'quv soatlari quyidagicha:

Semestr	Haftalar soni	Ma'ruza	Seminar	Jami auditoriya soati	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama	Kredit miqdori
3	15	30	30	60	90	150	5

#### X. NAZORAT TURLARI

1.1. Har bir semestrda fandan talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

1.2. Oraliq nazorat semestrning 7- haftalarida talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi.

1.3. Talabaning amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, talabaning amaliy (Amaliy mashg'ulot mavzulari) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi Universitetning Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholash orqali olib boriladi va u quyidagilardan iborat:

- tizimda fanning har mavzusi bo'yicha belgilangan test yoki amaliy topshiriqlarini bajarilganligi asosida baholanadi;

- mustaqil ish natijasini belgilangan muddatgacha tizimning "Mustaqil ish topshiriqi" bo'limiga qistiradi, baholash III-bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

1.4. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda 1 ta nazariy savol (shu mavzuga doir misol ham beriladi) ga yozma ish javobi bahosi (III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida) hamda uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari o'rtachasi hisoblanib yaxlitlab qo'yiladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Talabani oraliq nazorat turi quyidagicha baholanadi:

- 30 ta nazariy va amaliy test savollariga Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida javob berish natijalari;

- semestr davomida 13 bandedagi topshiriqlarni bajarish baholari hisobga olinib "2", "3", "4" va "5" bilan umumlashtirib baholanadi.

1.5. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash (III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida) maqsadida 3 ta savol berish orqali og'zaki shaklda o'tkaziladi:

1 savol: nazariy

2 savol: nazariy

3 savol: amaliy

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini

o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida 30 ta test savollari berish orqali Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilanadi.

#### XI. TALABALAR BILIMNI BAHOLASH MEZONLARI

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

**Foydalaniladigan rahbariy adabiyotlar, milliy va xalqaro maxsus huquqiy hujjatlar, asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar hamda elektron ta'lim resurslari ro'yhati:**

**I. Rahbariy adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, nutqlari

**II. Milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat -protsessual kodeksi, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy-protsessual kodeksi, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va ko'shimchalar kiritish xakida O'zbekiston Respublikasining qonuni [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. O'zbekiston Respublikasining Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy lazorat to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. O'zbekiston Respublikasining Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. O'zbekiston Respublikasining Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. O'zbekiston Respublikasining Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
11. O'zbekiston Respublikasining Odamning immunitet tunqisligi virusi bilan kasallanishning (OITS kasalligining) oldini olish to'g'risidagi qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**III. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi ijro ishini yuritish. Darslik TDYU.-Toshkent.:2006.
2. Salayev N., Niyozova S. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari (umumiy qism). TDYU. 2023
3. Xaydarov Sh. Jazodan ozod qilish, TDYU. 2023
4. Ijro ishini yuritish. Darslik (mualliflar jamoasi) TDYU.-Toshkent.:2021.

**IV. Elektron ta'lim resurslari (saytlar):**

1. <http://www.library-tsul.uz>. TDYU elektron kutubxonasi.
2. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali  
<http://www.library-tsul.uz>. TDYU elektron kutubxonasi  
<http://www.lex.uz>  
<http://www.legislature.uz>  
<http://www.jurislib.ru>  
<http://www.zivonet.uz>  
<http://www.pravo.uz>